



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 12-dekabr VII-16-127-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 12-noyabrdagi VII-14-118-11-163-K/25-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Tuman hokimligi tomonidan Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 12 noyabrdagi VII-14-118-11-163-K/25-sonli qaroriga asosan 2025-yil 3-chorak yakuni bilan tuman mahalliy byudjetida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ajratilgan xarajatlardan tejalgan mablag‘lardan samarali foydalanishni ta‘minlash yuzasidan berilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 12-noyabrdagi VII-14-118-11-163-K/25-sonli qaroriga *ilovaga* muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Jamolova)ga va tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (T.Isaqov)ga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha mablag‘ni maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Yo‘ldashev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 12-dekabrda
VII-16-127-11-163-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 12-noyabrda
VII-14-118-11-163-K/25-sonli qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 2025-yil 12-noyabrda
VII-14-118-11-163-K/25-sonli qarorining:

- 1-ilovasi, 6-ustuni, 4-pozitsiyasidagi:

“480 090,0” raqami - “248 090,0” raqamiga;

- 1-ilovasi, 6-ustuni, 16-pozitsiyasidagi:

“600 565,0” raqami - “323 565,0” raqamiga ;

- 1-ilovasi, 5-ustuni, 16-pozitsiyasidagi:

“99 435,0” raqami - “47 435,0” raqamiga ;

- 1-ilovasi, 3-ustuni, 20-pozitsiyasidagi:

“150 000,0” raqami - “130 000,0” raqamiga o‘zgartirilsin.

- 1-ilovasi quyidagi mazmundagi 21 va 22-23-pozitsiyalar bilan to‘ldirilsin:

№	Mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan tadbirlar nomi	Mablag‘ ajratishga asos va so‘rov	Mablag‘ ajratila - digan tashkilot nomi (Budjet buyurtmachisi)	Mablag‘ manbasi	Ajratilgan mablag‘ (ming so‘m)
21	Chegara hududidan ko‘chirilayotgan xonadonlarni baholash xarajati	elektr energiyasi hamda ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash bilan bog‘liq sotib olish xarajatlari uchun dastlabki hisob-kitoblar bo‘yicha tejab qolingan mablag‘lar hisobidan	Tuman hokimligi	Xususiylashtirishdan tushgan tushumlar	309 000,0
22	Yangi O‘zbekiston massivida yashil makon dasturi doirasida yashil bog‘ tashkil qilish va sotib olish xarajati	elektr energiyasi hamda ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash bilan bog‘liq sotib olish xarajatlari uchun dastlabki hisob-kitoblar bo‘yicha tejab qolingan mablag‘lar hisobidan	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Xususiylashtirishdan tushgan tushumlar	148 000,0

23	Yangi O'zbekiston massivida yashil makon dasturi doirasida yashil bog' tashkil qilish va sotib olish xarajati	elektr energiyasi hamda ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bilan bog'liq sotib olish xarajatlari uchun dastlabki hisob-kitoblar bo'yicha tejab qolingan mablag'lar hisobidan	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Davlat aktivlarini sotishdan tushgan tushumlar	52 000,0
J A M I		X	x	x	509 000,0